

KONFERENSIYALAR COM

ANJUMANLAR PLATFORMASI

**VIII RESPUBLIKA ILMIY-
AMALIY KONFERENSIYASI**

**YANGI DAVR ILM-
FANI: INSON UCHUN
INNOVATSION G'OYA
VA YECHIMLAR**

APREL, 2026

ISSN 3093-8791

ELEKTRON NASHR:

<https://konferensiyalar.com>





ANJUMANLAR PLATFORMASI

YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR

**VIII RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYASI MATERIALLARI**

2026-yil, aprel

TOSHKENT-2026

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.
VIII Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.
2-jild, 8-son (aprel, 2026-yil).– 150 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

ISSN: 3093-8791 (onlayn)

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2026-yil, 24-aprel

Mas'ul muharrir:

Isanova Feruza Tulqinovna

Annotatsiya

Mazkur to'plamda "Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar" mavzusidagi VIII Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Nashrda respublikaning turli oliy ta'lim muassasalari, ilmiy markazlari va amaliyotchi mutaxassislari tomonidan tayyorlangan maqolalar o'rin olgan bo'lib, ular ijtimoiy-gumanitar, tabiiy, texnik va yuridik fanlarning dolzarb muammolari va ularning innovatsion yechimlariga bag'ishlangan.

Ushbu nashr ilmiy izlanuvchilar, oliy ta'lim o'qituvchilari, doktorantlar va soha mutaxassislari uchun foydali qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ilmiy-amaliy konferensiya, innovatsion yondashuv, zamonaviy fan, fanlararo integratsiya, ilmiy-tadqiqot, nazariya va amaliyot, ilmiy hamkorlik.

Barcha huquqlar himoyalangan.

© Scienceproblems team, 2026-yil

© Mualliflar jamoasi, 2026-yil

MUNDARIJA

FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI

Valijonova Shaxzoda

n-TARTIBLI CHIZIQLI O'ZGARMAS KOEFFITSIYENTLI BIR JINSLI BO'LMAGAN
DIFFERENSIAL TENGLAMALARNI ANIQMAS KOEFFITSIYENTLAR USULIDA YECHISH 6-9

Mullaboev Omonboy, Bo'riyev Yusufjon

KO'P TILLI PARALLEL KORPUS ARXITEKTURASI VA GAPLARNI AVTOMATIK
MOSLASHTIRISH ALGORITMI 10-15

Soyipov Jasurali, G'aniyeva Maxfuza

FIZIKADAN MASALALAR YECHISH ORQALI O'QUVCHILARDA
TADQIQOTCHILIK KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHDA PISA
TADQIQOTLARINING AHAMIYATI 16-19

IQTISODIYOT FANLARI

G'ofurov Rashidjon, Nishonov Akmalxon

KICHIK BIZNES SUB'EKTLARI TOMONIDAN TO'LANADIGAN SOLIQLAR VA
MAJBURIY TO'LOVLAR HISOBINING NAZARIY VA AMALIY ASOSLARI 20-24

FALSAFA FANLARI

Парниева Айгуль

ФИЛОСОФИЯ ХУДОЖЕСТВЕННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ КАК ПРОСТРАНСТВО
СМОЛООБРАЗОВАНИЯ И ФАКТОР ФОРМИРОВАНИЯ КОМПЕТЕНЦИЙ ХХІ ВЕКА И
СОЦИАЛЬНОЙ ЗРЕЛОСТИ СТУДЕНЧЕСКОЙ МОЛОДЕЖИ 25-30

FILOLOGIYA FANLARI

Tursunova Farangiz

TURKIY TILLARDA YUZ IFODASI VA ULARNING O'XSHASHLIK VA FARQLI
JIHATLARI 31-33

Jo'rayeva Nozimaxon

O'ZBEK TILIDAGI OLMOSHLARNING KO'P MA'NOLILIGI: SEMANTIK
KENGLIK VA KONTEKSTUAL O'ZGARUVCHANLIK 34-38

Inatova Jasmina

ARAB YOZUVIDAN LOTINGA O'TISH JARAYONI VA MUAMMOLARI 39-42

Mavjudboyeva Mardona

DOSTONLARDA TUSH MOTIVINING O'RNI 43-47

Tilaboyeva Musobar, Xusniddinxonova Mahzuma

GEORGE ORWELL ASARLARIDA TOTALITAR JAMIYAT TANQIDI ZAMONAVIY
KONTEKSTDA 48-50

Xamidova Go'zal

ZADIE SMITH ASARLARIDA ZAMONAVIY JAMIYAT TASVIRI 51-53

Adasheva Durdona

FEMINIZM ZAMONAVIY INGLIZ ADABIYOTIDA QANDAY AKS ETADI 54-57

<i>Erkinov Ma'murjon</i> TARIXIY ROMAN: QIYOSIY-NAZARIY TAHLIL (INGLIZ VA O'ZBEK ADABIYOTI MISOLIDA)	58-62
<i>Zokirjonova Madina</i> COLLOQUIAL LANGUAGE IN "DOWN AND OUT IN PARIS AND LONDON" A REFLECTION OF CLASS AND IDENTITY	63-65
<i>Azimova Anisa</i> KINETIC SIGNS AND EMOTIONAL CONCEPTUALIZATION IN UZBEK AND ENGLISH DISCOURSE	66-71
<i>Isanova Feruza</i> O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA XALQARO HUQUQ TERMINLARINING YASALISH USULLARI	72-77
YURIDIK FANLAR	
<i>Bakhromova Laylo</i> IMPROVING INTERNATIONAL ANTI-MONEY LAUNDERING STANDARDS: PRIORITY DIRECTIONS FOR IMPLEMENTATION AND PROPOSALS FOR ENHANCING EFFECTIVENESS	78-86
<i>Abdullayeva Sabohat</i> KRIPTOAKIVLAR ANONIMLIK XUSUSIYATINING HUQUQIY TABIATI: NAZARIY VA DOKTRINALI YONDASHUVLAR	87-90
<i>Muhammadjonova Gulasal</i> IJTIMOIY TARMOQLARDA SHAXSIY HAYOT DAXLSIZLIGINI TA'MINLASH MUAMMOLARI	91-93
PEDAGOGIKA FANLARI	
<i>Omonova Muxlisa</i> DEONTOLOGIYA TUSHUNCHASI VA UNING PEDAGOGIK MOHIYATI	94-96
<i>Tadjibayeva Gavxaroy, Nazarov Abdug'affor</i> EKOLOGIK MADANIYAT ASOSIDA SALOMATLIKNI SAQLASHGA YO'NALTIRILGAN MASHG'ULOTLAR METODIKASI	97-100
<i>Abdulborieva Mexruza</i> TIZIMLI TAHLIL VA STEM YONDASHUVLARI ASOSIDA IQTISODIY YO'NALISH TALABALARI ANALITIK HAMDA KREATIV FIKRLASHINI SHAKLLANTIRISH METODOLOGIYASI: AMALIY-METODIK MEXANIZMLAR	101-106
<i>G`ulomova Moxinur</i> BOSHLANG'ICH SINFLARDA INGLIZ TILI DARSLARIDA NOODATIY TOPSHIRIQLAR	107-110
<i>Boboyeva Iroda, Olimjanova Jasmina</i> BOSHLANG'ICH SINFLARDA TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING O'RNI	111-118
<i>Ismoilov Ravshan</i> BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QUVCHILARINING AXBOROT MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHDA RAQAMLI RESURSLARDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI	119-123
<i>Abduvaliyeva Farida</i> MULTIMEDIA VOSITALARINING TA'LIM JARAYONIDAGI DIDAKTIK JIHATLARI	124-127

<i>Эркинова Солохидинова Ранохон, Абдуазизова Вероника</i> МОТИВАЦИОННО ЦЕННОСТНЫЙ КОМПОНЕНТ РАЗВИТИЯ ИННОВАЦИОННОГО МЫШЛЕНИЯ СТУДЕНТОВ В ПРОЦЕССЕ ОБУЧЕНИЯ ИНОСТРАННОМУ ЯЗЫКУ	128-130
<i>Абдулбориева Мехруза</i> РАЗВИТИЕ КРЕАТИВНОГО МЫШЛЕНИЯ В ВУЗЕ СРЕДСТВАМИ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ: МЕТОДИКА И РЕЗУЛЬТАТЫ ЭКСПЕРИМЕНТА	131-134
<i>Jalolova Shahnoza</i> THEORETICAL AND PRACTICAL PROBLEMS OF DISTANCE LEARNING AND FOREIGN LANGUAGE TEACHING	135-139
<i>Usmanova Nodira</i> USE OF NEW INNOVATIVE METHODS IN DEVELOPING PROFESSIONAL SKILLS OF STUDENTS	140-143
<i>Sodiqova Sevara</i> LINGUISTIC AND COMMUNICATIVE ASPECTS OF ENGLISH SPEAKING DEVELOPMENT THROUGH PROJECT-BASED LEARNING	144-149

EKOLOGIK MADANIYAT ASOSIDA SALOMATLIKNI SAQLASHGA YO'NALTIRILGAN MASHG'ULOTLAR METODIKASI

Tadjibayeva Gavxaroy Ismailovna

NamDU Anatomiya va fiziologiya kafedrasida katta o'qituvchisi

Nazarov Abdug'affor Abdujabborovich

NamDU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori

Annotatsiya. Mazkur maqolada ekologik madaniyat asosida salomatlikni saqlashga yo'naltirilgan mashg'ulotlar metodikasi yoritilgan. Salomatlikni saqlashga yo'naltirilgan pedagogik texnologiyalar tasnifi va ularni loyihalash bosqichlarini ilmiy asosda yoritish ta'lim tizimida sog'lom avlodni shakllantirishning muhim metodik yo'nalishlaridan biridir. Ekologik madaniyatni rivojlantirish asosida salomatlikni saqlash masalasi zamonaviy pedagogik yondashuvlar nuqtayi nazaridan atroflicha tahlil qilindi.

Kalit so'zlar: ekologik tarbiya, yoshlar salomatligi, bilimlar tizimi, qadriyatlar va munosabatlar, amaliy faoliyat, kommunikativ kompetensiyalar, ekologik axborot.

METHODOLOGY OF HEALTH-PROTECTING TRAINING ON THE BASIS OF ECOLOGICAL CULTURE

Tadzhibayeva Gavkharoy Ismailovna

Senior Lecturer, Department of Anatomy and Physiology, NamSU

Nazarov Abdug'affor Abdujabborovich

Pro-Rector for Scientific Affairs and Innovations, NamSU

Annotation. This article discusses the methodology of health-oriented training based on ecological culture. The classification of pedagogical technologies aimed at maintaining health and the scientific coverage of their design stages are one of the important methodological directions for the formation of a healthy generation in the education system. The issue of maintaining health based on the development of ecological culture was analyzed in detail from the point of view of modern pedagogical approaches.

Keywords: ecological education, youth health, knowledge system, values and attitudes, practical activities, communicative competencies, ecological information.

DOI: <https://doi.org/10.47390/ydif-y2026v2i8/n21>

Dunyoda xalqaro miqyosda olib borilayotgan tadqiqotlar ekologik tarbiya, barqaror rivojlanish ta'limi va salomatlikni saqlash kompetensiyalarini integratsiyalashgan holda rivojlantirish zarurligini ko'rsatmoqda. BMTning "Barqaror rivojlanish maqsadlari" doirasida ekologik madaniyat, sog'lom hayot va sifatli ta'lim o'zaro bog'liq ustuvor yo'nalishlar sifatida e'tirof etilgan.

O'zbekistonda so'nggi yillarda ekologik madaniyatni rivojlantirish va yoshlar salomatligini mustahkamlash masalalari davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi masalalari bo'yicha alohida davlat boshqaruvi tizimining shakllantirilishi ekologik siyosatning izchilligini ta'minladi. [1; B.17.].

Ekologik madaniyatni shakllantirish muammosi MDH davlatlari pedagogikasi va ijtimoiy-gumanitar fanlarida mustaqil ilmiy yo'nalish sifatida XXI asr boshlaridan boshlab faol tadqiq etila boshladi. Xususan N.N. Moiseyev, A.N. Zaxlebniy, E.N. Dzyatkovskaya, E.Yu.

Nogteva, I.D. Lushnikov, V.A. Slastenin, A.A. Verbitskiy, V.I. Slobodchikov kabi olimlar ekologik madaniyatni shaxsning ekologik bilimlari, qadriyatlari va xulq-atvorini birlashtiruvchi integral sifat sifatida talqin qilishadi. Ular ekologik ta'limni fanlararo yondashuv asosida tashkil etish zarurligini asoslab, ta'lim muhitining ekologiyalashuvi muhim pedagogik shart ekanini ko'rsatishadi. [2; B.56.].

Yuqorida keltirilgan ilmiy ishlardan farqli ravishda, ushbu tadqiqot ekologik madaniyatni alohida tarbiyaviy yoki fan doirasidagi hodisa sifatida emas, balki yoshlar salomatligini saqlashga yo'naltirilgan yaxlit pedagogik tizim sifatida ko'rib talabalarda ekologik madaniyatni rivojlantirishga xizmat qiluvchi pedagogik texnologiyalar modelini ishlab chiqishdan iborat. [3; B.77.].

Ekologik madaniyatni rivojlantirish texnologiyasining maqsadi, mazmuni, shakl va vositalari ta'lim-tarbiya jarayonini tizimli, bosqichma - bosqich hamda natijaga yo'naltirilgan tarzda tashkil etishga xizmat qiladi. Bunda texnologiya tushunchasi faqat usullar majmui emas, balki aniq maqsadga qaratilgan, rejalashtirilgan, boshqariladigan va baholanadigan pedagogik jarayon sifatida talqin etiladi. Ekologik madaniyat esa shaxsning tabiatga munosabatini belgilovchi bilim, qadriyat, me'yor, mas'uliyat, amaliy ko'nikma va xulq - atvor birligini anglatadi. [4; B.98.]. Shuning uchun ekologik madaniyatni rivojlantirish texnologiyasi jamiyatning barqaror rivojlanish ehtiyojlari bilan shaxs rivojlanishi manfaatlarini uyg'unlashtirgan holda, o'quvchi - yoshlar va keng jamoatchilikning ekologik ongini, ekologik savodxonligini hamda ekologik mas'uliyatini shakllantirishga yo'naltiriladi.



1-rasm

Maqsadga erishish uchun pedagogik texnologiyaning mazmuni o'zaro uzviy bog'langan bir nechta tarkibiy yo'nalishlar asosida shakllantiriladi [1-rasm]. [5; B.45.]. Avvalo, mazmunning birinchi yo'nalishi bilimlar tizimiga taalluqli bo'lib, unda ekologiya asoslari, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, ekotizimlarning tuzilishi va faoliyati, iqlim o'zgarishi, havo va suvning ifloslanishi, tuproq degradatsiyasi, cho'llanish jarayonlari,

biologik xilma-xillikni saqlash, oziq-ovqat xavfsizligi, urbanizatsiya va sanoatlashtirishning ekologik oqibatlarini hamda ekologik huquq va me'yorlar bir butun tizim sifatida yoritiladi. Bu yo'nalishda mazmun faqat fakt va ma'lumotlar yig'indisi bilan cheklanib qolmay, ekologik hodisalarning sabab-oqibat aloqalarini ochib berishga, muammoli vaziyatlar asosida tahliliy va tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga yo'naltiriladi.

Mazmunning ikkinchi yo'nalishi qadriyat va munosabatlar tizimini qamrab olib, unda tabiatni insoniyatning umumiy boyligi sifatida anglash, insonning tabiat oldidagi axloqiy mas'uliyatini his etish, ekologik adolat va avlodlararo mas'uliyat g'oyalarini shakllantirish ustuvor ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, ijtimoiy hamkorlik, sog'lom turmush tarzi va ekologik xavfsizlikka yo'naltirilgan qadriyatlar shaxsning dunyoqarashi va hayotiy pozitsiyasiga singdiriladi. Bu yo'nalish ekologik madaniyatning ichki, motivatsion asoslarini mustahkamlashga xizmat qiladi. [6; B.78.].

Uchinchi yo'nalish amaliy faoliyat mazmunini o'z ichiga olib, unda o'quvchilarning ekologik bilimlarini real faoliyat orqali mustahkamlash nazarda tutiladi. Kuzatish, tajriba o'tkazish, o'lchash va monitoring olib borish, oddiy ekotizimlarni tahlil qilish, chiqindilar bilan ishlash amaliyoti, mahalliy ekologik muammolarni o'rganish, ekologik loyihalarni ishlab chiqish va amalga oshirish hamda turli ekologik tadbirlarni tashkil etish ko'nikmalari izchil ravishda rivojlantiriladi. Bu jarayon ekologik mas'uliyatni amaliy xulq – atvorga aylantirish imkonini beradi. [7; B.67.].

Mazmunning to'rtinchi yo'nalishi kommunikativ va fuqarolik kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilib, unda jamoada ishlash, hamkorlikda qaror qabul qilish, ekologik axborotni tanqidiy baholash, ekologik targ'ibot va ma'rifat ishlarini olib borish, ijtimoiy tashabbus ko'rsatish kabi sifatlar shakllantiriladi. Ushbu yo'nalish ekologik madaniyatning faqat shaxsiy emas, balki ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan faol pozitsiya sifatida jamiyat hayotida namoyon bo'lishiga xizmat qiladi. [8; B.35.].

Ekologik madaniyatni rivojlantirish texnologiyasining mazmuni tanlanayotganda didaktik tamoyillar bilan bir qatorda, ekologik ta'limning integrativ xususiyati ham e'tiborga olinadi. Ekologik muammolar ko'p tarmoqli bo'lgani uchun mazmun fanlararo yondashuv asosida quriladi: biologiya, geografiya, kimyo, fizika, iqtisod, huquq, texnologiya, tarix, ona tili va adabiyot, tasviriy san'at hamda informatika kabi fanlarda ekologik komponentni topish va didaktik jihatdan uyg'unlashtirish zarur. [9; B.99.].

Ekologik madaniyatni rivojlantirish asosida salomatlikni saqlash masalasi zamonaviy pedagogik yondashuvlar nuqtayi nazaridan atroflicha tahlil qilindi. Salomatlikni saqlashga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalari nafaqat o'quvchilarning jismoniy holatini mustahkamlash, balki ularning ekologik ongini, mas'uliyatli xulq-atvorini va sog'lom turmush tarziga bo'lgan ehtiyojini shakllantirishda muhim omil ekanligi asoslab berildi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Abdusattarovna O.X., Shohbozbek E. Ijtimoiy falsafada zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida sog'lom turmush tarzini shakllantirish //Global Science Review. – 2025. – T. 4. – №. 5. – C. 175-182.
2. Atxamjonovna B. D., Shohbozbek E. Respublikamizda maktabgacha ta'limda yoshlarning ma'naviy dunyoqarashini shakllantirish //Global Science Review. – 2025. – T. 4. – №. 5. – C. 221-228.

3. Diloram M., Shohbozbek E. O'zbekistonda yoshlarning ma'naviy dunyo qarashini rivojlantirishning pedagogik asoslari //Global Science Review. – 2025. – T. 4. – №. 5. – C. 207-215.
4. Maxliyo S., Shohbozbek E. Yoshlarning ma'naviy dunyo qarashini shakllantirishda maktabgacha ta'limning o'rni //Global Science Review. – 2025. – T. 4. – №. 4. – C. 83-89.
5. To'raqulova V. Milliy – ma'naviy qadriyatlar asosida o'quvchilarda ekologik kompetensiyani shakllantirish metodikasini takomillashtirish //problems and solutions of scientific and innovative research. – 2025. – T. 2. – №. 5. – C. 98-102.
6. Brečka P., Valentová M., Tureková I. Digital technologies in environmental education //TEM Journal. – 2022. – T. 11. – №. 2. – C. 726-730.
7. Buchanan J., Pressick-Kilborn K., Maher D. Promoting environmental education for primary school-aged students using digital technologies //Eurasia Journal of Mathematics, Science and Technology Education. – 2018. – T. 15. – №. 2. – C. em1661.
8. Efremenko L. V. et al. Environmental education technologies //Revista Eduweb. – 2020. – T. 14. – №. 2. – C. 265-279.
9. Kalogiannakis M., Papadakis S. Combining mobile technologies in environmental education: a Greek case study //International Journal of Mobile Learning and Organisation. – 2017. – T. 11. – №. 2. – C. 108-130.

YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR

VIII RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI

MATERIALLARI

2026-yil, aprel

Mas'ul muharrir: *F.T.Isanova*
Texnik muharrir: *N.Bahodirova*
Diszayner: *I.Abdihakimov*

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.
VIII Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.
2-jild, 8-son (aprel, 2026-yil). – 150 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

ISSN: 3093-8791 (onlayn)

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2026-yil, 24-aprel.

Barcha huquqlar himoyalangan.
© Science problems team, 2026-yil.
© Mualliflar jamoasi, 2026-yil.